



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 17-iyun, shanba,
72 (23.793)-son

**KUN
HIKMATI**

Odamlarni
samimiyat, oddiqlik
yaqinlashtiradi,
munosabatlarni
ishonchli va teran
qiladi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz



YOSHLAR BIRLASHDI

“Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostidagi festival kecha Samarqand shahrida davom etdi. Kun davomida yosh musavvirlar, kitobxonlar, “Zakovat”, “Bahs-munozara” hamda “Eng yaxshi insho” ko‘rik-tanlovlari ko‘tarinki ruhda o‘tkazildi.

Respublika ma‘rifat targ‘ibotchilari ishtirokida o‘tkazilgan “Kitoblar karvoni” tadbiri ham o‘ziga xos bo‘ldi. Shahardagi Mirzo Ulug‘bek haykali o‘rnatilgan maydonda tashkil etilgan tadbirda viloyatdagi oliy ta‘lim muassasalariga kitoblar jamlanmasi topshirildi.

Festival doirasidagi tadbirlar kechki payt “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro turizm markazida yoshlar sayli va gala-konsert bilan davom etdi. Tadbirda na‘faqat Samarqand shahri, balki viloyatning boshqa shahar va tumanlaridan ham yoshlar vakillari ishtirok etdi.

- Bu yilgi yoshlar festivali avvalgi-lariga o‘xshamaydi, - deydi payarqlik Javlon Mirzaqobilov. - Asosiysi, yangi bunyod etilgan majmuada ilk bor

bayram sayli tarzida tashkil etildi. Bu yerga kelib ketishimiz uchun alohida avtobuslar ajratildi. Ham tadbirda qatnashib, ham yangi turizm maskaniga sayohat qilib, bir olam taassurotlar bilan qaytarpimiz.

Tadbirda viloyat hokimi Erkinjon Turdimov, O‘zbekiston yoshlar ishlari agentligi rahbari Alisher Sa‘dullayev ishtirok etdi.

Samarqandning faol yigit-qizlari, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashda jonbozlik ko‘rsatayotgan mas‘ullar munosib taqdirlandi. Poytaxtdan kelgan taniqli xonandalar, viloyatimizning iste‘dodli san‘atkorlarining chiqishlari festivalga fayz kiritdi.

**E‘zoza MEYLIYEVA,
Jasurbek SHUKUROV (surat).**



INDONEZIYA VITSE-PREZIDENTI SAMARQANDDA

Ikki tomonlama munosabatlarni yanada mustahkamlash maqsadida yurtimizga kelgan Indoneziya vitse-prezidenti Ma‘ruf Amin boshchiligidagi delegatsiya 14-16-iyun kunlari Samarqandda bo‘ldi.

Samarqand xalqaro aeroportida yuqori martabali mehmonni viloyat hokimi E.Turdimov kutib oldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, vitse-prezident Samarqanddagi muqaddas qadamjolar, tarixiy-madaniy yodgorliklarni ziyorat qildi.

Ma‘ruf Amin islom olami-ning yetuk allomalari nomi

bilan bog‘liq maskanlarni obod qilish, ularning merosini o‘rganish borasidagi ishlarga yuksak baho berdi. Viloyat rahbarlari va turizm sohasi vakillari bilan Indoneziyadan Samarqandga sayyohlarni ko‘proq jalb qilish, ziyorat turizmi bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama etildi.



“Besh tashabbus olimpiadasi”:

Vakillarimiz 13 ta oltin, 1 ta kumush va 9 ta bronza medalni qo‘lga kiritdi

“Besh tashabbus olimpiadasi”ning respublika bosqichida viloyatimiz sharafiga himoya qilayotgan 300 nafardan ziyod yoshlar 19 yo‘nalishda sport musobaqalari va tanlovlarda faol ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egallamoqda.

Xususan, olimpiada doirasida shashka bo‘yicha “A” liga bahslarining 16-21 yosh toifasida ishtirok etgan Samarqand shahar Ipak yo‘li mahallasida yashovchi Shahrizod Hamidov musobaqa kumush medaliga sazovor bo‘ldi. Mazkur yosh toifasida stol tennis bo‘yicha xotin-qizlari o‘rtasidagi “A” liga musobaqalarida Past Darg‘om tumani Olmazor mahallasi sharafiga himoya qilgan Nurxon Allamurodova oltin medalga ega chiqdi.

Yengil atletika bo‘yicha o‘g‘il bolalar o‘rtasida o‘tkazilgan “A” liga bahslarining 16-21 yosh toifasida Urgut tumani O‘ramas mahallasi yoshlari hamda 27-30 yosh toifasida Kattaqo‘rg‘on shahar Amir Temur mahallasi yoshlari respublika birinchiligini qo‘lga kiritgan bo‘lsa, 16-21 yosh toifasida Oqdaryo tumani Amir Temur mahallasi xotin-qizlari uchinchi

o‘rin bilan kifoyalandi.

Stritbol bo‘yicha “A” liga bahslari natijasiga ko‘ra, o‘g‘il bolalar o‘rtasida 27-30 yosh toifasida Samarqand tumani Turkman mahallasi yoshlari mutlaq g‘olib deb topildi. Shu liga bahslarining 22-26 yosh toifasida Toyloq tumani Xo‘jayuz mahallasi xotin-qizlari uchinchi o‘rinni band etdi.

Umumjamoa hisobida samarqandlik yoshlar “Besh tashabbus olimpiadasi”ning hozirga qadar o‘tkazilgan respublika musobaqalarida 13 ta oltin, 1 ta kumush va 9 ta bronza medalini qo‘lga kiritdi. Ayni paytda bellashuvlar davom etmoqda. Olimpiada 1, 2 va 3-o‘rinlarni qo‘lga kiritgan yoshlar sport turlari va tanlov yo‘nalishlariga qarab, milliy terma jamoa tarkibiga saralanadi va ularning mahallasiga sport maydonchalariga qurib beriladi.

Husan OLIMOV.

Samarqand shahrida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Rossiya Federatsiyasining “KAMAZ” kompaniyasi hamkorligida “Kamaz kunlari” tadbirlari bo‘lib o‘tdi.

**“KAMAZ KUNLARI”
fuqarolarga ish,
talabalarga amaliyot
o‘tkazish imkoniyatini
berdi**



Unda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Navoiy, Buxoro va Xorazm viloyatlaridan 1200 nafardan ziyod xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo‘lgan oliy va professional ta‘lim muassasalarini bitiruvchilari ishtirok etdi.

- Ushbu tadbirni tashkil etishdan asosiy maqsad - oliy va professional ta‘lim muassasalarini bitiruvchilarini ish bilan ta‘minlash, ularning xorij texnologiyalarini o‘rganishiga imkon yaratish va “KAMAZ” kompaniyasi bilan hamkorlikni rivojlantirish, - dedi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig‘i Alisher Norboyev. - Bugungi kunda “Kamaz” kompaniyasida sinovchi-haydovchi, avtomobillarni ta‘mirlash chilingari, avtotransport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish kabi mashinasozlik sohasidagi kasblar bo‘yicha 1500-2000 nafar o‘rta bo‘g‘in kadrlarga ehtiyoj mavjud. Shu asosda bitiruvchilarni kompaniyada yaratilgan imkoniyatlar bilan

tanishtirish, ishlash istagida bo‘lgan mutaxassis kadrlarni kompaniya bilan shartnoma tuzishga ko‘maklashilmoqda.

Tadbir davomida “Kamaz” kompaniyasi bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlardagi oliy va professional ta‘lim muassasalarini o‘rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Suhbatlar bilan muvaffaqiyatli o‘tgan bitiruvchilar kompaniyaga shartnoma asosida ishga jalb qilinishi belgilandi.

- Avtomobillarni ta‘mirlash chilingari yo‘nalishida o‘qiyman, - deydi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jayli tumani kasb-hunar maktabi 2-bosqich o‘quvchisi Davlatboy Kengezboyev. - Mehnat yarmarkasida mutaxassislar suhbatidan o‘tib, ishga kirish bo‘yicha shartnoma imzoladik. Endi diplomni olishim bilan kompaniyada ish boshlayman va xorijda tajribamni oshirib, mashinasozlik korxonasi ochmoqchiman.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV.

SHINJON-UYG‘UR VA SAMARQAND:

Hamkorlikning yangi sahifalari ochilmoqda

Joriy yilning 20-29-aprel kunlari viloyat hokimining o‘rinbosarlari, tegishli tashkilotlar va idoralar hamda tadbirkorlardan iborat 65 nafar delegatsiya Xitoyning Shinjon-Uyg‘ur avtonom hududida bo‘ldik.

Tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi va Shinjon-Uyg‘ur avtonom viloyati vakillari o‘rtasidagi biznes forumda rasmiy chiqishlar bilan birga B2B uchrashuvlar tashkil qilindi. Muloqotlar davomida alyuminiy idishlar, PVX va kaustik soda, polimer va yog‘och aralashmalari profillar, quyosh panellari, turli kimyoviy vositalar va granit tosh mahsuloti hamda maxsus texnikalar ishlab chiqarishni tashkil etish yuzasidan muzokaralar olib borildi.

Xitoy korxonalar vakillari Samarqandga kelib, mavjud imkoniyatlarni to‘liq o‘rganib, loyihani amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha muzokaralar olib borilishini bildirdi.

Delegatsiya a‘zolari transformatorlar va elektrotexnika vositalari ishlab chiqaruvchi “TBEA GROUP”, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug‘ullanadigan “SZYSHENXE” korxonalarini faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Ushbu korxonalariga Samarqandda ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish taklif etildi.

Shamol energetikasi bo‘yicha “XINJIANG GOLDWIND SCI & TECH CO. LTD” korxonasi tashrif davomida viloyatimizda shamol enerje-

tikasini joriy qilish yuzasidan hamkorlik taklifi berildi.

Jejiang provinsiyasida “ZHEJIANG TIANJI NEW ENERGY TECHNOLOGY CO. LTD” korxonasi rasmiylari bilan qiymati 300 million dollarlik qishloq xo‘jalik suv nasoslarini quyosh panellari-ga o‘tkazish bo‘yicha kelishuv imzolandi.

Delegatsiyamiz bilan Urumchi zamonaviy sanoat rivojlanish zonasida 2000 dan ortiq ishlab chiqarish korxonasi (shundan 50 ga yaqini dunyoda yetakchi korxonalar) joylashgan hududda bo‘ldik. Sanoat zonasini ishtirokchilari bilan paxta teradigan maxsus texnikalar, paxtani qayta ishlashdan tortib, tayyor tekstil mahsulotlari ishlab chiqarishgacha bo‘lgan zamonaviy kompleks, yuk mashinalari, qishloq xo‘jaligi va issiqxonalar uchun plyonkalar ishlab chiqarishni tashkil etish yuzasidan muzokaralar olib borildi.

Jumladan, metall ishlab chiqarish sohasidagi dunyoning TOP-500 taligidagi (mis sanoati bo‘yicha 1 o‘rinda) turadigan “XINJIANG QIANWEI GOLDING CABLE CO. LTD” (AMER) korxonasi bilan Samarqandda misni qayta ishlash va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha loyihani amalga oshirish yuzasidan ikki tomonlama manfaatli takliflar bildirildi.

Shuningdek, farmatsevtika sohasidagi yirik “XINDEYUAN BIO ENGINEERING” korxonasi bilan Samarqandda yirik qon plazmasi - immunoglobulin ishlab chiqarish va analiz markazini tashkil etish bo‘yicha 250 million dollarlik memo-

randum imzolandi.

Tashrif davomida “JIUYU AGRICULTURE DEVELOPMENT CO. LTD” korxonasi bilan qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksporti va qayta ishlash korxonasini tashkil etish yuzasidan “Urgut” erkin iqtisodiy zonasini bilan 300 million dollarlik memorandum imzolandi.

Imzolangan yana bir hamkorlik memorandumining qiymati 100 million dollarni tashkil qiladi. Bunda qishloq xo‘jaligida shov‘rlangan yerlar unumdorligini oshirishda innovatsion yechimlar-ga ega “ZHEJIANG XINGYI ENVIRONMENTAL CONSTRUCTION CO. LTD” korxonasi ishlab chiqarish va ilmiy-texnik faoliyatni amalga oshiradi. Korxonasi rasmiylari qishq fursatlarda ishchi guruh tashkil etib, yerlarni o‘rganish maqsadida Samarqandga keladi.

Delegatsiya a‘zolari Yevropa-Amerika savdo va sanoat palatasining Shanxaydagi palatalari birlashgan ofislar markazida ham bo‘ldi. Palata rasmiylari bilan O‘zbekistonning Shanxayda, Xitoy tarafining Samarqandda ofislarini ochish va tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratish yuzasidan memorandum imzolandi.

Samarqand viloyati hamda Shinjon-Uyg‘ur avtonom viloyati o‘rtasidagi bu aloqalar dastlabki kelishuvlar bo‘lib, kelgusida har ikki viloyat o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash ko‘zda tutilgan.

**Feruz ABILOV,
viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari.**

Samarqand shahrida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB), viloyat va shahar hokimliklari hamda "AYESOM" kompaniyasi vakillari bilan hamkorlikda "Yashil shahar" loyihasi bo'yicha aholi fikrlarini o'rganish maqsadida turli sohalar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirokida seminar tashkil etildi.

Unda shaharning kelajakdagi atrof-muhit muammolarini hal etish bo'yicha infratuzilma investitsiyalari va ma'muriy-huquqiy tadbirlar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Ma'lumki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan mazkur loyiha viloyat hokimligi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Uni amalga oshirish orqali, Samarqand shahridagi ekologiya va atrof-muhit muammolarini bartaraf etish uchun xorijiy sarmoya kiritiladi, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari bajariladi.

Taqdimotda mazkur loyihalar samarqandliklarning fikrlari inobatga olingan

SAMARQANDNI "YASHIL SHAHAR"GA AYLANTIRISHDA

jamoatchilik fikri muhim



holda amalga oshirilishi alohida ta'kidlandi. Buning uchun so'rovnoma o'tkazilib, Samarqand shahrini eng chiroyli va yashil maskanga aylantirish uchun nima qilish zarurligi haqida tavsiya va g'oyalar berish taklif qilindi.

"Yashil shahar" loyihasi amalga oshirishda shahrimiz aholisi, qolaversa, keng jamoatchilikning fikr va takliflari inobatga olinadi, - deydi viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari

bo'yicha yordamchisi Nozir Ibragimov. - Chunki aholi yashab turgan shaharning qaysi hududida qanday muammolar borligini yaxshi biladi. Loyiha tashkilotchilari qaysi hududda yo'llardagi tirbandlik, ichimlik suvining tanqisligi, elektr energiyasi, bog', park, bolalar maydonchalari yetishmasligi kabi eng dolzarb masalalarni samarqandliklar xohishlari bilan tashkil etishga qaror qilishgan. Bu masalada sizlar ko'mak berishingiz kerak.

Seminarda hamkor tashkilotlar va keng jamoatchilik vakillaridan tuzilgan guruhi tomonidan asosiy muammolar haqida fikr va tavsiyalar tinglandi.

Bugungi kunda dunyoning yirik 50 ga yaqin shahrida "Yashil shahar" harakati davom ettirilmoqda, - deydi YTTB "Yashil shahar" xalqaro loyihasi maslahatchilar guruhi rahbari Djessi Xani. - Ularga Turkiyaning Izmir, Gaziantep, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasidan Dushanbe, Chimkent, Olmaota, Bishkek kabi shaharlar qatoriga Samarqand shahri ham qo'shildi. Harakatlar rejasi viloyat hokimligi tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Yaqin 15 yilga mo'ljallangan ushbu harakatlar rejasi xalqaro va mahalliy maslahatchilar guruhi tomonidan asosiy ekologik va atrof-muhit muammolarini tahlil qilish va baholash natijalari asosida tayyorlangan.

Seminarda bir necha bosqichlarga bo'lingan holda amalga oshiriladigan mazkur loyiha "AYESOM" (AQSH) kompaniyasi rahbarligidagi bir guruh xalqaro va mahalliy mutaxassislar tomonidan shaharning barcha ekologik muammolari o'rganib chiqilgan holda tayyorlangani ta'kidlandi.

Dilmurod TO'XTAYEV.



HUQUQIY MASLAHAT
10 YILGA 10 FOIZLI KREDIT
- Yaqinda mahalliy texnikalar xaridi uchun qator qulayliklar yaratilgan, deb eshitdim. Shu rostmi?

Y.BOLIYEV, Payariq tumani.

- Ha rost. Prezident topshirig'iga ko'ra, 1-apreldan:
- mahalliy ishlab chiqarilgan barcha texnikalar xaridi uchun 15 foiz subsidiya beriladi (hozir faqat Chirchiq klasterida ishlab chiqarilgan texnikalarga tatbiq etiladi);
- import qilingan texnikalar uch yil muddatga bojxona boji va utilizatsiya yig'imidan ozod qilinadi, ular bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini kechiktirib (9 oy davomida) to'lashga ruxsat beriladi (ushbu imtiyozlar hozir faqat paxtachilik va chorvachilik texnikalarida bor);
- texnika xaridi uchun 10 yil muddatga 10 foizlik kreditlar ajratiladi.

UYDAGI BEGONALAR QANDAY "CHIQRILADI?"

- O'g'lim internet ma'lumotlari asosida bizning xonadonimizda begona kishilar ham ro'yxatda ekanligini aytib qoldi. Bu muammoni qanday hal qilish kerak?

R.OCHILOVA, Past Darg'om tumani.

Uyda kimlar ro'yxatda turganini bilish uchun tegishli tashkilotga borish shart emas.

Buning uchun:

- My.gov.uz saytiga kirish;
- "Shaxsiy kabinet"ga o'tish;
- "Fuqarolik" bo'limini tanlash;
- "Doimiy yashash joyida yashovchilar ro'yxatini to'g'irlatish uchun so'rov yuborish" tugmasini bosish kerak.

Xonadoningizda notanish shaxslar ro'yxatga olingani aniqlansa, shu manzilingiz o'zidayoq ularni ro'yxatdan o'chirish mumkin. Buning uchun elektron murojaat yuborish yetarli.

KIMLAR O'RINDOSHLIK ASOSIDA ISHLASHI MUMKIN EMAS?

- Bir tanishimning aytishicha, hamma ham o'rindoshlik asosida ishlashi mumkin emasmish. Shu gap to'g'rimi?

J.OTAQULOV, Samarqand shahri.

Xodimning asosiy ishini bajarishidan tashqari bo'sh vaqtda mehnat shartnomasi asosida boshqa haq to'lanadigan ishni bajarishi o'rindoshlik asosida ishlash hisoblanadi.

Amaldagi tartibga ko'ra, o'rindosh xodim uchun ish vaqti (hajmi) belgilangan normaning yarmidan ko'p bo'lishi mumkin emas (shifokorlar bundan mustasno).

Shuningdek, quyidagi shaxslarning esa o'rindoshlik asosida ishlashi taqiqlanadi:

- o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar;
- davlat boshqaruvi organlari rahbarlari, ularning o'rinbosarlari va tarkibiy bo'linmalar boshliqlari;
- bir-biriga bo'ysunuvchi yoki bir-birining nazoratidagi tashkilotlarda davlat boshqaruvi organlari mutaxassislari (shifokorlar va o'qituvchilardan tashqari);
- agar o'rindoshlik asosida ishlovchining asosiy ishi mehnatning noqulay shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'lsa, shunday shart-sharoitdagi ishlarda ishlash (tibbiyot xodimlaridan tashqari);
- avtomobil tashuvlari xavfsizligini ta'minlash xizmatining ishchisi (mutaxassis).

Mansur HASANOV, viloyat adliya boshqarmasi xodimi.



Samarqand tumanida dam olish maskanlari ko'p, ammo...

Yozning jazirama issiq kunlarida odamlar tog' etaklarida, soya-salqin joylarda hordiq chiqarishni istaydi. Samarqand tumanida bunday joylar juda ko'p va bu maskanlarda dam olish uchun zarur sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tumanning Mironqul mahallasi markazidan oqib o'tuvchi soy bo'yida tashkil etilgan dam olish maskanlarida sayyohlarga xizmat ko'rsatish ko'ngildagidek bo'lgani uchun, hudud doim mehmonlar bilan gavjum. Har bir maskanda oilaviy yoki jamoaviy dam olish uchun sharoitlar yaratilgan.

- Tabiati go'zal, sayyohlar e'tiborini tortadigan hududda yashayotganimiz yutug'imiz, - deydi Mironqul mahallasi raisi Mehroj Sunnatov. - Tog' etagida joylashgan qishloq aholisi azaldan, mehmondo'st. Ular shu paytga qadar ham sayyohlarga xizmat ko'rsatgan, ammo tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tmagan edi. Keyingi yillarda turizmni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor va tadbirkorlar uchun berilayotgan imtiyozlar o'z samarasini beryapti. Bugungi kunda mahallamizda 13 ta dam olish maskani faoliyat olib bormoqda. Ulardan biri tadbirkor Aziz Bahridinovga tegishli bo'lib, bu yerda kuniga 200-250 nafar mehmon dam olishi uchun sharoitlar yaratilgan. Shuningdek, mehmon uylari ham tashkil etilgan. Har bir dam olish maskanida qishloqning 4-5 kishisi ish bilan band.

- Oila a'zolarim bilan dam olish uchun Jizzax viloyatining Arnasoy tumanidan keldik, - deydi Sattor Son-niboyev. - Shu kunlarda biz yashaydigan hudud juda issiq. Mironquldagi dam olish maskanlari haqida ko'p eshitgandim. Salqingina soy bo'yida miriqib hordiq chiqaraymiz.

Bu yaxshi albatta, ammo...

Tumanning O'rta Ohalik mahallasida ham sayyohlar-

ning tabiat qo'ynida dam olishi uchun yetarlicha imkoniyatlar bor-u, undan unumli foydalanilmayapti. Sababi, bu hududdagi dam olish maskanlari faqat haftaning shanba va yakshanba kunlari faoliyat olib borar ekan.

- 6 sotixli tomorqamizni dam olish maskaniga aylantirganimizga 10 yil bo'ldi, - deydi yosh tadbirkor Savrdin Jumayev. - 2 yildan beri tadbirkor sifatida faoliyat ko'rsatib kelyapman. Bu yerda bir vaqtning o'zida 30 kishini qabul qilishimiz mumkin. Shuningdek, o'n o'rinli mehmon uyimiz bor.

Mahallada bu kabi dam olish maskanlari ko'p, ammo ularning nechitasi qonuniy faoliyat olib borayotganini bilolmadik. Hatto mahalladagi hokim yordamchisi ham hududda qancha dam olish maskani borligini aniq bilmas ekan.

Bundan tashqari, hududda chiqindi qutilariga ko'zimiz tushmadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, soya yaqin joylarda dam oluvchilar tomonidan tashlab ketilgan ichimlik idishlari, polietilen xaltalar sochilib yotibdi.

Bu kabi muammolarga mutasaddilar e'tiborli bo'lsa, hudud toza va ozoda saqlanib, kelayotgan sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifati oshirilsa, xizmat ko'rsatuvchilar faoliyati qonuniy yo'lga qo'yilib, ularga beriladigan imtiyozlar, yaratilayotgan imkoniyatlar to'g'ri tushuntirilsa, O'rta Ohalikda ham tumanning boshqa mahallalaridagi kabi turistik maskanlar soni ortishi, mehmonlar safi kengayishi, shubhasiz.

To'liq SIDDIQOV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).

HAMKORLIKKA CHORLAYMIZ

TADBIRKORLAR UCHUN YANA BIR IMKONIYAT

Prezidentimizning 2023-yil 10-apreldagi "Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, bugungi kunda ijtimoiy soha obyektlarida dolzarb muammo bo'lgan isitish tizimlarining kuz-qish mavsumida barqaror ishlashini ta'minlash, ushbu obyektlarga issiqlik energiyasini uzluksiz yetkazib berish, energiya resurslaridan oqilona va samarali foydalanish hamda soha jozibadorligini oshirish orqali xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish lozim.

Mazkur qarorga muvofiq, tanlov asosida loyiha institutlarini jalb qilish hamda mavjud issiqlik ta'minoti tizimlarini xatlovdan o'tkazgan holda nuqsonlar to'g'risida dalolatnomalar rasmiylashtirish ko'zda tutilgan edi. Viloyatimizda joriy yilning iyun oyidan boshlab eksperiment tariqasida Jomboy, Narpay, Toyloq, Kattaqo'rg'on, Samarqand hamda Ishtixon tumanlarida ishlar boshlab yuborildi. Mazkur tumanlarda 844 ta ijtimoiy soha obyekti to'liq xatlovdan o'tkazildi va ularda aniqlangan 1978 ta muammo bo'yicha dalolatnomalar tuzildi. 1-iyungacha qadar loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, davlat ekspertizasidan o'tkazildi.

Joriy yil 1-iyulga qadar loyihalar bo'yicha konsepsiyalarni tasdiqlagan holda 1-avgustdan loyihalarni amalga oshirish uchun tenderlarni tashkil qilish hamda xususiy sheriklarni shaffof va ochiq shartlarda tanlab, modernizatsiya ishlarini boshlash belgilandi.

Davlat-xususiy sherikligi - bu xususiy sektorning boshqaruvi tajribasi va mablag'larini jalb qilish, xatarlarni to'g'ri taqsimlash orqali davlat xizmatlari sifati va infratuzilmasini yaratish bo'yicha davlat va xususiy sherik o'rtasidagi uzoq muddatli shartnoma hisoblanadi. Bunda, davlat sherigi (hokimlik) va xususiy sheriklar (tadbirkor) tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar aniq qilib belgilab berildi.

Xususiy sheriklarni tanlab olishda quyidagi talablar o'rnatildi:

- xususiy sheriklar mablag'larining ulushi kamida 50 foiz bo'lishi;
- isitish uchun me'yor bo'yicha talab etiladigan ko'mir va elektr energiyasi xarajatlarini kamida 20 foizga va issiqlik energiyasi yo'qotishlarini 30 foizga kamaytirish;
- ijtimoiy soha obyektlarida O'zbekiston Respublikasida kamida bir yil sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan va xizmat qilish kafolati kamida 15 yilni tashkil qiladigan qozonlarni o'rnatish.

Loyihalarni amalga oshirishda qaror bilan tomonlarning majburiyatlari belgilab berilgan.

Davlat sherigi (shahar va tumanlar hokimiyati) tomonidan

- xususan, investitsiya summasining 50 foizi davlat budjeti hisobidan qoplab beriladi;
- tadbirkorlarga isitish obyektlari va tizimlari

DXSH to'g'risidagi bitimda belgilangan muddatda vaqtinchalik bepul foydalanishga beriladi;

- 10 yil muddatda ekspluatatsiya xarajatlari davlat budjeti hisobidan DXSH to'g'risidagi bitimda belgilangan muddatlarda va miqdorlarda ajratib boriladi;

- investorga har yili xarajatlar tannarxiga nisbatan 10 foiz miqdorida sof foyda to'lovlari to'lab beriladi;

- xususiy sheriklar tomonidan bajariladigan ishlar va xizmatlar sifati doimiy nazorat qilib boriladi.

Xususiy sherik (investor) tomonidan:

- sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normalariga muvofiq, ijtimoiy soha obyektlarining ichki qismlarida issiqlik haroratini lozim darajada (20-23 S) ta'minlash;

- ijtimoiy muassasalar uchun zarur issiqlik energiyasi ishlab chiqarishda talab etiladigan ko'mir yoqilg'isi zaxirasi yaratish va ta'minlashi;

- 10 yil muddatda DXSH to'g'risidagi bitimga muvofiq, isitish tizimini ekspluatatsiya qilish va boshqaruvi amalga oshirishi belgilandi.

Istitish qozonlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda ularga qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida, belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha xorijdan olib kelinadigan (import qilinadigan), respublikada ishlab chiqarilmaydigan tovarlar 2025-yilning 1-yanvariga qadar bojxona bojidan ozod qilinadi.

Bugungi kungacha Jomboy tumanida 1, Toyloqda 2, Narpay, Kattaqo'rg'on va Samarqand tumanlarida 3 nafardan, Ishtixonida 6 nafar tadbirkor talabgorlar tenderlarda ishtirok etishni xohlab ariza topshirishdi.

Ijtimoiy soha obyektlarining issiqlik tizimini davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirishni istagan ishbilamonlar o'zlarini yashab turgan shahar va tuman hokimliklariga murojaat qilib, loyihalar va tender o'tkazish vaqti bilan tanishishlari mumkin. Kelgusida ushbu loyihalar boshqa shahar va tumanlarga ham tatbiq etiladi.

Aziz tadbirkorlar, siz uchun yaratilgan imkoniyatlardan foydalaning.

Orzumurod MARDONOV, viloyat moliya boshqarmasi ijtimoiy soha bo'limi boshlig'i.



Paxtachi tumani g'allakorlari joriy yilda 6254 gektar maydonda g'alla parvarishlab, qariyb 16 ming tonna don yig'ishtirib olishni rejalashtirgan. 200 dan ortiq fermer xo'jaligi tomonidan yetishtirilgan hosilni nobud qilmasdan, qisqa fursatda sifatlari o'zgarib olish uchun 30 ta otryad tashkil etildi va 15 ta kombaynda o'rim ishlari davom etmoqda. Hozirgacha o'rigan maydonlarda o'rtacha hosildorlik 55-63 sentnerni tashkil etmoqda. Jumladan, "Jo'ra Iso zamini" fermer xo'jaligi a'zolari 46 gektar maydondan 58 sentnerdan xirmon ko'tardi.

Izzatilla NORQUVATOV olgan surat.

Viloyatimizda 2023-2024-o'quv yilida 88533 nafar bola 1-sinfga qabul qilinishi bo'yicha birlamchi prognoz ro'yxatlar shakllantirilgan. Shundan davlat umumiy o'rta ta'lim maktablariga 87036 nafar, boshqa vazirlik va idoralar tasarrufidagi ta'lim muassasalariga 66 nafar, nodavlat ta'lim muassasalariga 1431 nafar maktab yoshiga yetgan bolalar qabul qilinadi.

Samarqand va Kattaqo'rg'on shahrlarida 2023-2024-o'quv yilida bolalarni umumiy o'rta ta'lim maktablariga qabul qilish bo'yicha davlat xizmati Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) yoki Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining elektron davlat xizmatlari portali (my.maktab.uz) orqali onlayn shaklda ota-ona va ularning o'rni bosuvchi shaxslarga ko'rsatiladi.

1-sinfga qabul qanday amalga oshiriladi?

Davlat xizmati joriy etilmagan tumanlardagi umumiy o'rta ta'lim maktablariga 1-sinfga qabul jarayonlari Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarorida belgilangan tartibda umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari tomonidan an'anaviy shaklda amalga oshiriladi hamda maktabga qabul qilingan o'quvchilar vazirligining elektron tizimi (adm.maktab.uz)ga maktab rahbariyati tomonidan kiritiladi.

Qabul jarayoni davlat xizmatlari markazi orqali va an'anaviy shaklda bo'lishidan qat'i nazar, bolalarni maktablarga qabul qilish muddati 20-iyundan 31-iyulga qadar biriktirilgan mikrohudud doirasida, 1-15-avgustga



qadar mikrohududdan tashqari hududlardan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, 2023-2024-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfga yetti yoshga to'ladigan bolalar, ya'ni 2016-yilning 31-dekabr kunigacha tug'ilganlar qabul qilinadi.

Tasarrufidagi umumiy o'rta ta'lim maktablari, hududdagi nodavlat ta'lim tashkilotlari va boshqa vazirlik, idoralar tasarrufidagi maktablarining 1-sinfga qabul qilingan bolalar haqidagi ma'lumotlarni shu kunning o'zida vazirligining elektron tizimi (adm.maktab.uz)ga kiritilishi belgilangan.

2023-yilning 30-avgustiga qadar 1-sinfga qabul qilingan bolalar uchun 12 nomdagi o'quv qurollaridan iborat Prezident sovg'alari vazirligining elektron tizimi (adm.maktab.uz)ga kiritilgan bolalar soniga mos ravishda umumiy o'rta ta'lim maktablariga yetkazib beriladi.

Isomiddin NUSRATOV,
viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi metodisti.

Yosh onalarga maslahat

Ona suti go'daklarni boqish uchun yagona oziq hisoblanadi. Chaqaloqni emizish o'ziga yarasha oltin qoidalari bor. Bolaning yaxshi o'sishi va ulg'ayishi ko'krak berib emizish qoidalarga qay darajada rioya qilinishiga ham bog'liq.

ONA SUTI TABIATNING MO'JIZASI



Emizishdan oldin birinchi navbatda gigiyena qoidalarga rioya qilish, bola ham, ona ham toza kiyimda bo'lishi kerak.

Ona suti yaxshi kelishi uchun homilador ayol homiladorlikning birinchi yarmida xohlagan ovqatini, ya'ni oqsillarga, vitaminlarga va minerallarga boy ovqatlarini, ikkinchi yarmida esa ko'proq sut va o'simlik mahsulotlarini iste'mol qilishi tavsiya etiladi. Tug'ilgandan keyin birinchi uch-to'rt kun ichida ona bolasini yotgan holda emizadi, keyinchalik o'tirib emizsa ham bo'ladi.

Farzandini emizayotganda ona yengil jismoniy harakat qilib, xirgoyi bilan emizishi yaxshi. Bu haqda Ibn Sinoning "Tib qonunlari" kitobida ham yozilgan.

Bolaning yaxshi o'sishi uchun uni xohlagan paytida emizish mumkin. Bir paytlar aniq vaqtga, rejimga qarab bolaga ko'krak suti berish tavsiya etilardi. Hozirda bolani sutkasiga o'rtacha 10-12 marta emizish mumkin. Ko'krakda sut qolsa, sog'ib tashlash kerak. Bu laktatsiyani kuchaytiradi, ya'ni sut bezlari yangi sut ishlab chiqaradi.

Bolani kamida olti oy, agar ona organizmning kuchi yetsa, 2 yoshgacha emizish tavsiya etiladi. Shuningdek, bolaga kuniga ikki mahal 10-20 millilitr qaynagan suv berish tavsiya etiladi, chunki sutning o'rni boshqa, suvning o'rni boshqa, bu bola organizmida moddalar almashuvini yaxshilaydi.

Emizadigan ayollar ko'proq non, yog'siz mol go'shti, baliq, asal yeb turishlari tavsiya etiladi va stresslardan o'zini tiyishi kerak.

SH.G'ANIYEVA,
Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi.

Majburiy ijro byurosining viloyat boshqarmasi surishtiruv va ma'muriy amaliyot shu'ba-basi faoliyatida aliment undiruvchi bilan bog'liq ishlar alohida e'tiborga olingan. Sohada boshqarma va uning tuman, shahar bo'limlari tomonidan aliment qarzdorligini to'lashdan qasddan bo'yin tovlab kelinayotgan holatlar yuzasidan Jinoyat kodeksining 122-moddasi 1- va 2-qismi bilan 64 ta jinoyat ishi qo'zg'atilib, 510 nafar qarzdorga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 47-4-moddasi 1-qismi bilan ma'muriy jazo qo'llanilishi ta'minlangan.

Farzand ta'minotini o'ylamaslik

oqibati panjara ortiga yetaklaydi, biroq qarzdorlik gardanda qoladi

Ayrim jinoyat ishlari bo'yicha o'tkazilayotgan sud jarayonida qarzdorlar o'zlariga tegishli xulosalar chiqargan holda aliment qarzdorligini to'lab berishi holatlari ham kuzatilmoqda.

Jumladan, Sh.S. fuqarolik ishlari bo'yicha Kattaqo'rg'on tumanlararo sudining 2015-yil 9-apreldagi sud buyrug'iga asosan Sh.L. ning foydasiga 2 nafar farzandi voyaga yetgunligiga qadar moddiy ta'minoti uchun har oylik ish haqi va boshqa daromadlarining uchdan bir qismi miqdorida aliment pullarini 2022-yilning iyun oyidan joriy yilning mart oyiga qadar to'lab berishdan qasddan bo'yin tovlab kelgan. Holat bo'yicha Sh.S.ga nisbatan Jinoyat kodeksining 122-moddasi 1-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, ish 25-aprel kuni jinoyat ishlari bo'yicha Kattaqo'rg'on tumani sudida ko'rilib, shu jarayonida aliment qarzdorligini to'liq qoplab berganligi bois ish sud ajrimiga asosan tugatilgan.

Ayrim qarzdorlar o'zlariga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha tegishli xulosa chiqarmaganligi sababli ularga nisbatan sud hukmiga ko'ra jazo choralari tayinlanmoqda.

Xususan, K.L. fuqarolik ishlari bo'yicha Kattaqo'rg'on tumanlararo sudining 2022-yil 25-martdagi hal qiluv qaroriga ko'ra, Q.M.ning foydasiga bir nafar, undiruvchi K.N.ning foydasiga bir nafar va undiruvchi I.S.ning foydasiga ham bir nafar, ya'ni 3 nafar voyaga yetmagan farzandlarini voyaga yetgunligiga qadar moddiy



ta'minoti uchun har oylik ish haqi va boshqa daromadlarining oltidan bir qismi miqdorida bo'lgan 14 million 126 ming so'm aliment pulini to'lab berishdan qasddan bo'yin tovlab kelgan.

Holat bo'yicha Q.L.ga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishi jinoyat ishlari bo'yicha Paxtachi tumani sudida ko'rilib, joriy yil 6-mart kundagi hukmga ko'ra, qarzdor Q.L.ga 1 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-avgustdagi 427-son qaroriga muvofiq, "Aliment to'lovlarini jamg'armasi" tashkil etilganligi, voyaga yetmagan farzandini moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlaganlik uchun qarzdor jinoyat javobgarlikka tortilgan taqdirda, aliment to'lovlaridan yuzaga kelgan qarzdorliklarni, ya'ni jinoyat natijasida yetkazilgan zararni biron-bir yil undiruvchilarga to'lab berish belgilangan.

Viloyatimizda mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida hozirgi kunga qadar 45 ta jinoyat ishi bo'yicha 386 million so'mlik zararlar undiruvchilarga to'lab berilgan.

Misol uchun, jinoyat ishlari

bo'yicha Ishtixon tumanlararo sudining hujjatiga asosan, T.F.dan G.Q. foydasiga bir nafar farzandining moddiy ta'minoti uchun oylik ish haqi va boshqa daromadlarining to'rtadan bir qismi miqdorida aliment undirish belgilangan.

Biroq qarzdor bir necha marotaba ogohlantirilganligi va ma'muriy jazoga tortilganidan to'g'ri xulosa chiqarmasdan, ikki oydan ortiq muddat davomida aliment pullarini to'lashdan qasddan bo'yin tovlab kelgan. Shu sababli unga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Ish jinoyat ishlari bo'yicha Qo'shrabot tumani sudida mazmunan ko'rib chiqilib, T.F.ni ozodlikdan mahrum etish va undan G.Q. foydasiga 16 million 842 ming so'm miqdorda zarar undirish to'g'risida qaror chiqarilgan.

Mazkur ijro hujjatiga asosan "Aliment to'lovlarini" jamg'armasi hisobidan qayd qilingan miqdordagi pullar undiruvchi nomiga ochilgan bank plastik kartasiga ko'chirib berildi.

Shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha Jomboy tumani sudida mazmunan ko'rib chiqilgan ish bo'yicha qarzdor T.M. ozodlikdan mahrum etilib, undan undiruvchi N.H. foydasiga 27 million 742 ming so'm miqdorda zarar undirish to'g'risida qaror chiqarilgan. Shu asosda "Aliment to'lovlarini" jamg'armasi hisobidan 27 million 742 ming so'm pul undiruvchi nomiga ochilgan bank plastik kartasiga ko'chirib berildi.

Azamat MIRSHAYEV,
MIB viloyat boshqarmasi surishtiruvchisi.

Taklif

"YOG" mi yoki "MOY"?

So'nggi paytda maqola va yangiliklarda, hatto mahsulotlarning idish yoriqlarida ayrim so'zlarning noo'rin ishlatilayotganligi guvohi bo'lyapmiz. Xususan, paxta moyi idishida "Paxta yog'i", kungaboqar moyi idishi yorlig'ida esa "Kungaboqar yog'i" singari yozuvlarga ko'zimiz tushmoqda.

Lekin aslida ushbu so'zlar noto'g'ri qo'llanilmoqda. Chunki maktabda kimyo fani darsligida "moylar" va "yog'lar" mavzulari alohida-alohida o'qitiladi. Olgan saboqlarimiz natijasida hayvon va parrandalardan olinadigan yog'lar (sigir sutidan olinadigan sariyog') yog' deb atalishi, o'simlik mahsulotlaridan (jumladan, yer qariidan qazib) olinadigan moylar moy deb nomlanishi haqida tushuncha paydo bo'lgan.

Shunday ekan, yog'-moy mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi tadbirkorlar idish yorlig'i matnlarini tayyorlashda ular moy yoki yog' ishlab chiqarayaptimi, bilib olsalar, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shuningdek, moyning yog', yog'ning moy, deb nomlanishi ko'pchilikda, ayniqsa, yoshlarda noto'g'ri bilim hosil qiladi.

Turli yig'ilishu muloqotlarda qishloq xo'jaligi mutaxassislar tomonidan "suvli yer" iborasini qo'llab, "sug'oriladigan yer" tushunchasini ifoda qilmoqchi bo'lishadi. Lekin iboraning mazmunini tahlil qiladigan bo'lsak, suvli yer, deganda "suvli mavjud, ya'ni, yerosti suvi baland bo'lgan, maxsus suv tarmoqlari orqali sug'orilishi shart bo'lmagan yer" ma'nosi kelib chiqadi. Sug'oriladigan yer, deyilganida esa ekanligi o'simliklarning ariq va quvurlar orqali sug'orilishi lozim bo'lgan yer maydonlari tushuniladi.

Shu bois biz sug'oriladigan yer maydonlari haqida gapirganimizda "suvli yer" deb emas, balki "sug'oriladigan yer" so'zini qo'llasak, tilimizning sofligini ta'minlagan bo'lamiz.

Yo'ldosh SUYUNOV,
mehnat faxriysi.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

JAMOA SHARTNOMASI TASDIQLANDI

Samarqand davlat tibbiyot universitetining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan jamoa shartnomasi tasdiqlandi. 2023-yil 10-may kuni ekspertizadan o'tkazildi va 8-son bilan ro'yxatdan o'tkazildi.

Qoshimcha ma'lumotlarni universitet kasaba uyushma qo'mitasidan olishingiz mumkin.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

Telefon: +99866-233-17-57.

UNIVERSITET KASABA UYUSHMA QO'MITASI.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Xamidov Naimga (2015-yil 21-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Karimov Djurakulga (1984-yil 8-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Bababekov Xusen Axatovichga (2013-yil 2-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuquryo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Akramov Asrorga (2021-yil 17-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuquryo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Narzibayev Tohir Rabbimovichga (2020-yil 12-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Atabekov Jaxongir Musurmonkulovichga (2020-yil 18-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Maxmudov Sirochga (1994-yil 14-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

BEKOR QILINADI
Fuqaro Raxmonova Shoiraga qarashli Samarqand tumani Sulfakabutak qishlog'ida joylashgan hovli-joyning kadastr hujjatlari to'plami (14:12:01:01:06:0015:0015) yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

"OMAD SUG'URTA" AJ umumiy hisobda 3 dona OS seriyadagi 8007, 8008 va 8010 raqamli ixtiyoriy turdagi sug'urta polislarini yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sharof Rashidovning hurmatini qozongan dehqon

Toshboy Arziqulov hayot bo'lganida 100 yoshga to'lardi

Inson umrini oqar daryoga qiyoslashadi. Daryo o'z yo'lida manzillarni bog'u bo'stonga aylantirsa, inson umri davomida ezgu ishlari, yaxshi amallari bilan qablarga ziyo baxsh etib, ko'ngillarni nurafshon etadi. Insonni ulug'laydigan, uni elga tanitadigan xislati esa shubhasiz, uning mehnati, odamlarga qilgan yaxshiligidir. Hayotning bu oddiy, ammo yozilmagan qonunini Toshboy Arziqulovning hayoti va faoliyati timsolida ko'ramiz.

Toshboy aka 1923-yilda Ishtixon tumani Ravot qishlog'ida tug'ildi. Qishloqda xulqi, namunal tarbiyasi, mehnatkashligi bilan barchaga o'rnak bo'ldi. Zamon zayli - 1930-yillardagi o'charchilik va qahatchilik, 1937-yillardagi qatag'on, 1941-1945-yillardagi urush yosh Toshboyning qalbidagi o'qishga bo'lgan ishtiyoqini so'ndirmadi. Ikki yil Samarqand shahridagi xo'jalik rahbarligi tayyorlash maktabida tahsil oldi. Shu bilan birga, bu davr uni hayotda tobladi: dehqonchilik, paxta yetishtirish ilmini mohirona o'zlashtirdi, oqilligi, tashabbuskorligi, har qanday masalani yetti o'lchab, bir kesib, odilona hal qilishi bilan elda e'tibor qozondi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yaratuvchilik yillarida yetuk brigadir bo'lib yetishdi.

UVAT UZRA TO'XTAGAN YURAK

...1979-yilning ko'klam. O'shanda chigit ekish avj olgan kezar edi. Har daqiqa g'animat. Aksiga olib, shamol turib, ekishga tayyorlangan yerning namini qochirib ketardi. Bunday paytda tezroq harakat qilmagan dehqon yutqazishi aniq.

Toshboy aka anchadan beri yurak xurujidan azob chekardi. Ammo buni umr yo'ldoshidan bo'lak hech kimga bildirmas edi. Turmush o'rtog'ining kechasi bilan bezovtalanib chiqqanligini ko'rgan Uzoqoq opa unga achinib, buguncha dalaga chiqmasligini so'radi.

- Axir, ish-ish deb, sog'lig'ingizni yo'qotdingiz-ku, - dedi u erining qon qochgan yuzlariga tiklarkan.

- Yo'q. Hozir borib, chigit ekiladigan maydonga mola bostirmasam bo'lmaydi. Nami qochgan yerga urug' qadashning foydasi yo'q. Xavotir olma, tezda qaytaman...

Erining bir so'zli, qaysarligini bilgan ayol indamasdan uning ortidan xomush qarab qoldi...

Toshboy aka odamlar ishlayotgan uchastkaga yetib kelganida o'zini yomon seza boshladi. Yuragi sanchdi. Otdan tushishga ham ulgurmadi...

- Dongdor paxtakor Toshboy aka Arziqulovni eslaganimda xotiramda bir voqea jonlanadi,

- deya eslaydi jurnalist O'tkir Saidov. - O'shanda 1976-yilning kuz oylari edi. Tumanimizga Sharof Rashidov tashrif buyurdi. Rayon markazidagi klubda katta yig'in bo'ldi. Shunda viloyatda birinchi bo'lib paxta tayyorlash yillik rejasini bajargan, 160 gektar maydonning har gektaridan 56 sentnerdan hosil yetishtirgan Toshboy Arziqulovga so'z berildi. Hozir uning o'sha paytda nima deganini eslolmasam-da, Sharof otaning faxrlanib: "Qaniydi har bir rayonda kamida o'ntadan ana shu Toshboy Arziqulov singari brigadirimiz bo'lsa", deganini aniq bilaman. Shu yig'ilishda Toshboy akaga "Jiguli" avtomashinasi mukofotga berildi. Darvoqe, xo'jalik a'zolari o'sha yili 1300 gektar paxta maydonining har gektaridan 56 sentnerdan hosil yetishtirib, respublikada rekord qo'yishgandi.

Ha, yo'lingiz tushib, Ishtixonga borsangiz, dehqonchilik, paxtachilik tarixidan gap ochilsa, Toshboy aka haqida albatta, to'qinlanib gapirishadi. Chunki ko'pchilik qalbidan u kishidan nurli xotiralari qoldi.

- Toshboy bilan qariyb tengdosh edik, - deya xotirlagan edi Navoiy nomli xo'jalik raisi, tajribali irrigator Ko'bay Ravshanov. - Uning paxtachilik sohasidagi bilim va tajribasi yirik bir olimnikdan qolishmasdi. Ko'pincha muammolarga duch kelganimda u bilan maslahatlashardim. Uning fikri har doim to'g'ri chiqqanligiga guvoh bo'lib, ko'p bor tan berganman. Toshboy o'ta'g'il edi. Bu gapda ma'no ko'p. Otasi Arziqul bobo men ishlagan mana shu kolxozga uzoq yillar raislik qilgan, elning mehri qozongan. Shuning uchun Arziqul bobodek, Toshboydek serg'ayrat, tinib-tinchimmas, mehnatsevar dehqonlar kam tug'iladi.

Darvoqe, Arziqul ota haqida ikki og'iz so'z...

OCHARCHILIKNI TADBIRKORLIGI BILAN YENGGAN RAIS

Arziqul O'sarov 1881-yilda tug'ilgan edi. U dastlab sobiq Qoradaryo rayonidagi mashina-traktor stansiyasi (MTS)da agronom, keyinchalik "Komen-



trin" jamoa xo'jaligida rais bo'lib ishlagan.

To'rt nafar o'g'li bo'lib, katta farzandi Eshim urushga ketib, bedarak yo'qolgan. Ikkinchi o'g'li - Toshboy. Uchinchi - Mamat traktorchi, kenjasi Ne'mat xo'jalikka rais bo'lgan.

1930-yillarda paxta va g'al-ladan 30 sentnerdan oshirib hosil olgan. O'sha paytlarda xo'jalikda joylashgan maktab direktori bo'lib ishlagan marhum Abdurahim Usmonov shunday xotirlagandi:

"30-yillar boshida odamlar ocharchilik tufayli kunjara, ko'k o't yeb, shishib o'lib qolar edi. Arziqul aka rais bo'lgan jamoa xo'jaligida esa odamlar ochlikdan o'lmagan. Chunki xo'jalik omborida qishin-yozin zaxira sholi va bug'doy bo'lardi.

Bir kuni Arziqul aka bozorga borib, kolxozda yashovchi bir kishining sigir sotayotganini ko'rib qoladi.

- Ha, sigir sotayapsanmi? - debdi.

- Ha, rais bobo, qishga yegulik don, sholi olmoqchi edim.

- Bolalaringning "og'zini quritib" sigir sotishing noo'rin. Qaytar sigirni uyingga, kechga xalta olib, idoraga o't, - deb uni bozorda quvib solibdi.

Shu kuni kechqurun haligi kishi ikkilanib, idoraga boribdi. Ombor mudiri uni kutib turgan ekan. "Rais tayinladi", deb qishga yetgulik bug'doy va sholi berib yuboribdi.

OT IZINI TOY BOSAR

Darhaqiqat, shunday. Buni qarangi, ot bosgan iz - Ishtixonidagi sobiq Navoiy kolxoziga 1930-yillarda Arziqul bobo raislik qilgan bo'lsa, yigirma yil o'tib, Toshboy ota brigadir va rais o'rinbosari sifatida mehnat qildi. 1990-yillarda esa Arziqul boboning nevarasi, Toshboy otaning o'g'li Donaql aka shu xo'jalikka rais bo'ldi. Rais bo'lganda ham dongdor, ota va bobosi erishgan yutuqlarni takrorlab, xo'jalikni iqtisodiy jihatdan boy jamoaga aylantirgan rais sifatida nom

qozondi.

Hozirgi vaqtda sobiq Navoiy nomli jamoa xo'jaligi to'liq fermer xo'jaligiga aylantirilgan. Bobo, farzand va nevara "gullatgan" yerlar fermer xo'jaliklariga tarqatilgan bo'lib, bir qismini avvaliga Toshboy otaning nevarasi Shuhrat Toshboyev, hozirgi kunda esa Farid Toshboyev boshqarmoqda.

- Otam rahmatli ishda ham, oilada ham baxt topgan inson edi, - deya xotirlaydi bugungi kunda "Nuroni" jamg'armasida mas'ul vazifada faoliyat yuritayotgan D.Toshboyev. - Faqat otamning birgina armoni bor edi. Shu armon tufayli uning qalbi vayron bo'lgan, yuragining xastaligi ham shundan edi. Gap shundaki, Arziqul bobom tadbirli, tashabbuskorligi bilan bir umr halol mehnat qilib, kolxoz tuzish ishlari-da faol qatnashgan, oddiy kolxozchilikdan xo'jalik raisligigacha ko'tarilgan edi. O'tgan asrning 30-yillaridagi kollektivlashtirishning mashaqqatlarini boshidan kechirgan, kechayu kunduz mehnat qilib, elga tanilgan. Ammo ana shunday izzat-e'tiborga sazovor bo'lgan inson hech bir sababsiz qoralanib, uzoq muddatga qamaladi. Bunday nohaqlik tufayli bobom 1937-yilda qamoqxonada vafot etadi, 14 yoshli otam esa yurak kasalligini orttirib oladi.

Ha, o'smir yoshidan hayotning kuchli zarbalariga duchor bo'lgan, ammo taqdirning bu sitamlarini mehnati, tadbirkorligi bilan yenggan Toshboy aka umrining yarmidan ko'pini paxta ishiga sarfladi. Shundan yigirma yilcha brigadaga sarkorlik qildi. Agronom bo'ldi. Kolxoz raisining o'rinbosari vazifasida faoliyat ko'rsatdi. Lekin u chinakam obro'-e'tiborga brigadaga yetakchilik qilgan yillarida erishdi. 1978-yilda uning ko'ksini "Hurmat belgisi" ordeni, xalq xo'jalik yutuqlari ko'rgazmasining oltin va kumush medallari bezadi.

Toshboy aka Uzoqoq opa bilan 8 nafar farzand tarbiyaladi. Ularning biri qishloq xo'jaligi xodimi, biri vrach, uch nafar farzandi pedagog, birlari savdo xodimi, ishchi bo'lib yetishishdi. Bugun ular, qolaversa, yigirma nafardan ziyod nevaralari ham o'qib-izlanib, xalq xo'jaligining turli sohalari-da ishlayapti.

Agar Toshboy Arziqulov hayot bo'lganida bu yil 100 yoshga kirardi. Ayni kunlarda Toshboy bobo umrguzaronlik qilgan Ravot qishlog'idagi kamtargina dehqon xonadonidan otaxonni bilgan yoki u kishining ezgu ishlari haqida eshitgan kishilarning qadami uzilmaydi. Ular Toshboy otaning 100 yilligi bahonasida odamlar bilan shirin xotiralarni eslash, dildan suhbatlashishni mo'ljallab, tadbir tashkil etayotgan farzand va nevaralaridan Sharof Rashidovning hurmatini qozongan dehqon haqida yana ko'proq bilishga oshiqyapti.

Akram HAYDAROV.

"Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali chorak asrdan buyon dunyo xalqlarining milliy musiqa san'ati va qo'shiqchiligi an'analarini asrab-avaylash va rivojlantirish, tili, madaniyati, urf-odatlarini turlicha bo'lgan millat va elatlarini san'at vositasida birlashtirish, ularni ezgulikka da'vat etishga xizmat qilmoqda.

"Sharq taronalari" XIII xalqaro musiqa festivalida

80 dan ortiq davlat vakillari ishtirok etadi

1997-yildan beri har ikki yilda muntazam o'tkazib kelinayotgan festival so'nggi marta 2019-yilda bo'lib o'tgan edi.

- 2021-yilgi festival pandemiya sabab qoldirilgan edi, - deydi viloyat madaniyat va turizm boshqarmasi boshlig'i Shahzod Eshonqulov. - Shukrki, insoniyatni sinovdan o'tkazgan og'ir kunlar ortda qoldi. Davlatimiz rahbarining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida "Sharq taronalari" XIII xalqaro musiqa festivalini o'tkazish belgilandi. Joriy yil ham an'anaga muvofiq avgust oyining oxirgi o'n kunligida o'tkazilishi ko'zda tutilgan ushbu xalqaro festivalga katta tayyorgarlik ko'rilmog'da.

"Sharq taronalari" jahon xalqlari milliy musiqa san'atida erishilgan yutuqlarni asrash va rivojlantirishda beqiyos o'ringa ega, qolaversa, san'at orqali xalqlar o'rtasida do'stlik va madaniy aloqalarni mustahkamlash, insonlarni ezgu g'oyalar atrofida jipslashtirish, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro ijodiy aloqalarni yanada mustahkamlashda muhim omil bo'lmoqda.

- Festivalning nufuzi ortib, ishtirokchilar geografiyasi ham tobora kengayib boryapti, - deydi Shahzod Eshonqulov. - Bugun ko'plab mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar, mashhur san'at namoyandalari unda qatnashishni o'zlari uchun sharaf deb biladi. 1997-yilda o'tkazilgan



birinchi festivalda 31 mamlakat vakillari qatnashgan bo'lsa, 2019-yilda 75 ta davlatdan 340 nafar vakil qatnashgani ham shundan darak berib turibdi. To'rt yil davomida san'atkorlar ham, musiqa shinavandalari ham Sharq ohanglarini sog'ingan. Shu kungacha 80 dan ortiq mamlakat vakillari nufuzli festivalda ishtirok etish istagini bildirdi.

Festivalga tayyorgarlik doirasida mehmonlarni kutib olish va mehmonxonalariga joylashtirish, ularga tarjimon, gid-ekskursovod ajratish, sayohatlar tashkil etish, transport xizmati ko'rsatish va boshqa xizmatlar bilan bog'liq har bir masalaga jiddiy e'tibor qaratiladi.

Keyingi yillarda Samarqand xalqaro miqyosdagi ko'plab tadbirlarga mezbonlik qildi. Ushbu tadbirlar sabab sayyohlik rivojlandi. Bu yilgi festivalda har doimgidan ko'proq ishtirokchilar va mehmonlarning tashrifi kutilyapti.

Sulaymon MARDIYEV.

Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni oldidan

Dilbar Qurbonnazar qizi Voseyeva - Paxtachida tug'ilib o'sgan, o'rta maktabni tugatgach, ToshDU jurnalistika fakultetiga sirdan kirdi va tuman radiosi orqali kasb ostonasiga qadam qo'ydi. Bugun u radiojurnalistikaning tajribali vakili. Yillar davomida viloyat va respublika radiosida ishlab jarayonida sohaning malakali muxbiri sifatida shakllandi. Dilbar Voseyeva g'azal va she'rlarni qoyilmaqom qilib, chin yurakdan o'qiydi. Shu sababli ko'plab radiotinglovchilar uning yangi ijrolarini intiqlik bilan kutadi. U badiiy ijod bilan ham shug'ullanadi. Quyida uning mansuralaridan birini e'tiboringizga havola etamiz.

SIMIRAY OLAMNING GO'ZALLIGINI

(MANSURA)

Haq ishqini sipqoray, soqiy,
Yorimning ko'zlari uchun simiray -
Lablarim yondirsin mayi nob.
Mast bo'lay uningsiz, unsiz ud bo'lay.
Tolrali chertildi ishqli ko'ngilning,
Sirlari sochildi sodda bir diling,
Ko'zlardan yosh emas, qayg'u tomchilar.
Lablardan bol emas "yo hu" yog'ilar.
Ba'g'ri toshlar...
Jahannam, do'zax, jannat, arosat,
Hammasi mavjuddir baqo olamda.
Bu olamda-chi?
Shukrona etayin,
Boshim falakda
va poyim ostida poyandoz zamin.
Sog'lomman!!!
Irodam metindir, do'stlarim bisyor.
Faqat majoziy "ishq" berma, Allohim!
Yashayin muhabbat shu lasin quchib.
Tosh etg'il ko'ksimni, tosh et vujudim.
Rahmdil Alloh!
Nahot, beparvo,
Nahot, loqayd,
Nahot, bag'ritosh bo'la olmasam...
Nahotki, majozdan tiyilolmasam...
Olamni - tabiatni, suvni,
Bepoyon tuproqni suyay -
Simiray olamning go'zalligini.
Mo'jizalar bisyor,
Hayot go'zal, ijod baqamti,
She'riyat, ko'ksimni yondir!
Adashtirma meni saholaringda...
Bepoyon tirlik ummonlaringda,
Ma'rifat mulkida qilmayin xato.
Parvardigor, sabr ber,
Iymon ber,
Bergil qanoat...

Dilbar VOSEYEVA.

Gazeta o'qish uchun chop etiladi!

Yaqinda poytaxtimizda shu nomdagi kitob nashrdan chiqdi. Bu kitobga duch kelgan ijtimoiy tarmoq "faol"i yana bir gazetachining gazeta o'qish haqidagi nasihati-da, degan o'ylar borishi aniq.

E'tiborlisi, kitob muallifi Alisher Toirov yosh iqtisodchi, faoliyati ham shu soha bilan bog'liq. Ammo u bugungi bosma nashrlarning taqdiriga befarq bo'lmagan doimiy kuzatuvchisi. Muallif kitobdan o'rin olgan mulohazalarida bugungi gazeta va jurnallarning taqdiri haqida jonkuyarlik bilan so'z yuritadi. Xususan, kitobdan o'rin olgan "Gazeta o'qish uchun chop etiladi!" sarlavhali maqolada bildirgan mulohazalari millat ma'naviyatiga befarq bo'lmagan har bir kishini o'ylashga, muammoga teran nazar solishga undaydi.

"Davlat arbobi Sharof Rashidovning

nomi bizga doim gazetalarning kuchini bildirib turadi. Bu insonning yetuk siyosatchi bo'lishida gazetaning o'rni muhim bo'lgan. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi ulug' shoirlarimiz ham she'riyatga ilk qadamlarini tahririyatda qo'ygan, shu yerda qalami charxlangan. Afsuski, bugun "makulatura" so'rasa, qo'lingizga gazeta, jurnal tutqazadigan avlodga aylandik".

Ha, bugun internetda axborot tarqatish tezligi bilan bahslashadigan manba harqalay, hozircha ma'lum emas. Ammo faqat-



gina axborotning tezkorligini muhim bilib, fikr-mulohazali, tahlilii-tanqidiy maqolalar o'qishdan o'zini mahrum qilish ham to'g'ri bo'lmaz. Bosma nashrlarni, xususan, gazeta o'qishni tark qilayotgan bugungi jamiyat mana shu sababdan ham ur-yiqit axborotlar bilangina qanoatlanyapti. Kishi internetda o'ziga kerak bo'lgan axborotni qidirar ekan, smartfon ekranida minglab reklama va targ'ibot ilovalariga duch keladi. Beixtiyor ularning qutqusiga uchib, asosiy maqsad-muddaodan chalg'iydi. Adashgan yoshlar, jinoyatga qo'l urayotgan kattalar ana shunday tahrirsiz, asossiz axborotlar qurboniga aylanayotganini hech kim inkor etolmaydi. Internetda juda ko'p soxta yangiliklar mavjud va gazeta har doim tasdiqlangan ma'lumotlarni taqdim etadi. Biz bugungi

internet tajovuziga qaramay, dunyoda har kuni minglab, millionlab gazetalar chop etilayotganidan xabardormiz. Holbuki, internet AQSH, G'arb davlatlari, Yaponiya yoki Xi-toyda O'zbekistondagiga qaraganda ancha tezkor. Ammo ularda bugun ham gazetalarning millionlab nusxada chop etilyapti.

Muhimi, gazeta o'qish kishida mutolaa ko'nikmasini hosil qiladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, gazeta o'qimayotgan avlod kitob o'qishdan ham yiroqlashyapti. Shunday ekan, bosma nashrlar taqdiriga befarqlik yosh avlodning savodxonlik darajasiga ham salbiy ta'sir qilishini tushunib yetishimiz lozim.

Kitobda shu kabi fikrlarni o'qir ekan-siz, bu e'tiborsizlik va befarqlik oqibatida ma'naviy yo'qotishlarimizning ko'laminii his qilasis.

Sulaymon ASOMIDDINOV.

Yangi kitob

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 598 nusxada chop etildi. Buyurtma 334. Hajmi 2 bosma toq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

S.MARDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

